

O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratining huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari

Mashxura Azadovna Sharapova
sharapovamash@mail.ru

TDIU

Bobir Shamsiddinovich Mirzayev
bobirmirzayev1110@mail.com

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari, iqtisodiy islohotlar sharoitida ularni yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek nazorat organlari, xususan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hamda Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiya sining nazorat faoliyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, huquqiy asos, moliyaviy nazorat organlari, Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiya si, nazorat tadbirlari

Ways to improve the legal framework of state financial control in Uzbekistan

Mashkhura Azadovna Sharapova
sharapovamash@mail.ru

TSUE

Bobir Shamsiddinovich Mirzaev
bobirmirzayev1110@mail.com

Banking and Finance Academy of Republic of Uzbekistan

Abstract: This article discusses the legal foundations of state financial control in Uzbekistan, issues of their further improvement in the conditions of economic reforms. The control activities of regulatory bodies, in particular the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan and the State Financial Control Inspectorate, were also analyzed.

Keywords: financial control, effective use of budget funds, legal framework, financial control bodies, Accounts Chamber, State Financial Control Inspectorate, control activities

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, davlatning pul fondlarini to'g'ri va maqsadli ishlatilishini ta'minlash va bu borada korruptsiyaning oldini olish doimo muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda davlat mablag'larini doimi monitoring qilish, moliyaviy operatsiyalarni joriy baholash, qonunbuzilishlarini aniqlash va oldini olish, shuningdek sub'ektlarni moliyaviy qonunchilikka rioya qilishlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar olib boriladi.

Mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy sharti bolib moliyaviy nazorat xizmat qiladi. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bolib hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat moliya organlarida amalga oshiriladigan moliyaviy jarayonlarni mamlakatimizning amaldagi qonunchiligiga, xalqaro huquq normalariga, foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini va faoliyatning haqiqiy yakuniy natijalariga erishishni tekshirishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 senyabrda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158 Farmonida davlat mablag'lari, xususan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish maqsadida davlat xaridlarini to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag'larni talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo'yicha jamoatchilik nazoratini to'laqonli joriy qilish lozimligi belgilandi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nazorat amal qilinuvchi qoidalarining Lima deklaratsiyasida nazoratga quyidagicha ta'rif berilgan: "Nazoratni tashkil etish ijtimoiy moliyaviy mablag'larni boshqarishning zaruriy elementi hisoblanadi, chunki bunday boshqaruv jamiyat oldidagi masuliyatni keltirib chiqaradi. Nazorat shunchaki maqsad bolib kolmasdan, balki tartibga solish tizimining ajralmas qismidir, uning maqsadi ahvolni toqirilash choralari korish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, etkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bolish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun qoidalarining buzilishlarini, moddiy resurslarning samaradorligi va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir" [2].

Rossiyalik iqtisodchi olim L.M.Podyablonskaya moliyaviy nazoratni barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy qonunchiligi va moliyaviy intizomiga rioya etilishi uchun maxsus tashkil etilgan muassasalar va nazoratchilarning qonuniy tartibga solinadigan faoliyati sifatida izohlaydi" [3].

A.S.Neshitoy va Y.M.Voskoboynikovlarning fikricha, moliyaviy nazorat, turli shakl va usullardan foydalangan holda xo'jalik va boshqaruv subyektlari (davlat,

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar) faoliyatining moliyaviy va unga tegishli masalalarini tekshirish bo'yicha operatsiyalar majmuidir [4].

T.S.Maslova moliyaviy nazoratga moliyaviy boshqaruv shakllaridan biri bo'lib, iqtisodiy faoliyatning barcha sjhalarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish bilan belgilanadigan metodologik mustaqil nazorat sohasi deya ta'rif bergan[5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, T.S.Malikov "Barcha iqtisodiy subyektlarning (davlat, korxonalar va tashkilotlarning) moliyaviy faoliyati ustidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining turli darajalari, shuningdek maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratga moliyaviy nazorat deyiladi" deya fikr bildirganlar [6].

TAHLILIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida davlat moliyaviy nazorati byudjet togrisidagi qonun hujjatlarining buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qoymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshirilishi hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlari ekanligi keltirib o'tilgan [7]. Bugungi kunda qayd etilgan nazorat organlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralarda ichki audit faoliyatini tashkil etuvchi ichki audit xizmatlari faoliyat yuritmoqda. Ichki audit faoliyati vazirlik va idoralarda byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, byudjet tizimi byudjetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyatdir.

2002 yilda dunyodagi ko'pgina mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda mamlakatimizda Oliy nazorat organi sifatida davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish, davlatning aktiv va passivlarining harakatini, shuningdek qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalarni amalga oshirilishini nazorat qilish, mamlakat oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy kapitaldan samarali foydalanish, davlat tashqi qarzlarini o'z vaqtida qaytarilishini monitoring qilish maqsadida Hisob palatasi tashkil etildi [9].

Oradan 17 yil o'tib, 2019 yilda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida" O'RQ-546-son qonuni imzolandi va qonunning 3-moddasida Hisob palatasining huquqiy maqomi belgilangan bo'lib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi davlat tashqi auditi va moliyaviy nazoratining oliy organi ekanligi qayd etildi. Hisob palatasi o'z faoliyatini ochiq va shaffof tarzda, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Qonun bilan Hisob palatasining asosiy vazifalari sifatida byudjet loyihasining shakllantirilishi va uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvorliklariga muvofiqligini tahlil qilish, davlat dasturlari va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini audit qilish, davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi va asosligini baholash kabilar belgilandi.

Hisob palatasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va vakolatlar doirasida dastlabki hamda yakuniy nazorat tarzida taftish, tekshirish va o'rganish shaklida nazoratni amalga oshiradi. Hisob palatasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ko'rsatmalar va taqdimnomalar qabul qiladi, shuningdek tahliliy ma'lumotlar hamda xulosalar tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 avgustdagi "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6300-son Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan Hisob palatasining faoliyati yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Hisob palatasi davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona organ sifatida belgilandi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi sifatida 2022 yilda Hisob palatasi faoliyatida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi [10].

Birinchidan, tashqi audit tadbirlarini xalqaro standartlar asosida rejalashtirish va ular doirasida moliyaviy, samaradorlik va muvofiqlik auditlarini o'tkazish tizimi joriy etildi, shuningdek davlat moliyaviy nazoratida xavf-tahlilni amalga oshirish standartlari ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Ikkinchidan, 2022 yildan boshlab, Hisob palatasi va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi o'tkazadigan barcha davlat moliyaviy nazorati tadbirlarini hamda vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari o'tkazadigan audit tadbirlarini yangi ishga tushirilgan "Davlat audit" dasturiy kompleksida ro'yxatga olish va ularning natijalarini ushbu dasturda umumlashtirish tartibi joriy etildi.

Uchinchidan, byudjet intizomi buzilishi holatlarining tahlilini amalga oshirish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash maqsadida 320 ta turdagi huquqbuzarliklarni o'z ichiga olgan "Byudjet sohasidagi huquqbuzarliklar turlarining tasnifi" ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

To'rtinchidan, huquqbuzarlik va xato-kamchiliklarga doir ma'lumotlarni jamlash, ularning yuzaga kelishiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni o'rganish, bartaraf etish choralarini belgilash va ijrosini nazorat qilish maqsadida nazorat tadbirlari natijalarining hisobini yuritish va bartaraf etilishini nazorat qilish standarti ishlab chiqildi.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida Hisob palatasi tomonidan amalga oshiriladigan

nazorat shakllari va turlariga qo‘shimcha ravishda moliyaviy audit, muvofiqlik auditi va samaradorlik auditi joriy etildi. Shuningdek, Hisob palatasi davlat organlari bilan o‘zaro elektron ma’lumot almashinuvi amaliyotini keng yo‘lga qo‘ydi. Byudjet tashkilotlarida o‘tkaziladigan davlat moliyaviy nazorati tadbirlarini nazorat qilib, takroriy tekshirishlarning oldini olishga qaratilgan “Davlat auditi” dasturiy kompleksi ishga tushirildi [11].

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan 2021-2022 yillarda o‘tkazilgan nazorat (audit) tadbirlari [12]

T/p	Ko‘rsatkichlar	O‘tkazilgan nazorat (audit) tadbirlari soni		Aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasi (mlrd. so‘m)	
		2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Jami		11 285	5 702	2 597	7 825
1	Hisob palatasi	61	74	1 372	3 191
1.1	Nazorat tadbirlarida Hisob palatasining ulushi	0,5	1,3	52,8	40,8

2022 yilda 2021 yilga nisbatan jami nazorat tadbirlari soni 48 %ga kamaygan bo‘lishiga qaramasdan, Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari soni 21 %ga ko‘paygan, jami aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasi esa 201 %ga, Hisob palatasi tomonidan aniqlangan kamchiliklar summasi 133%ga ko‘paygan.

Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari jami nazorat tadbirlarining 2021 yilda 0,5%ni, 2022 yilda 1,3% taashkil etgan bo‘lsa, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar summasining ulushi 2021 yilda 52,8%ni va 2022 yilda 40,8%ni tashkil etgan.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, shuningdek qonunchilik hujjatlarining ijrosi samarali tashkil etilishini ta‘minlash yuzasidan tizimli choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga oz miqdorda talon-toroj qilinganligi va davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik buzilganligi uchun ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnoma tuzish vakolatlarini berildi [12].

Zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e‘tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadida 2017 yil 21 avgustda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-3231-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etildi va uning qo‘shimcha vazifalari etib quyidagilar belgilandi:


➤ byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

➤ byudjet qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

➤ byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo‘l qo‘yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

➤ masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma‘lumotlar bazasi vositasida tekshirish ob‘ektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moliya vazirligi huzurida davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 129-son Qarori bilan Davlat moliyaviy nazorati Departamenti Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi sifatida qayta tashkil etildi va unga ga yuklatilgan qo‘shimcha vazifalar yuklatildi.



1-rasm. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga yuklatilgan qo‘shimcha vazifalar [13]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini oshirish, byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2022 yil 14 fevralda “O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-128-son

Prezident qarori imzolandi va unda Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari birinchi navbatda byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan yo'nalishlar belgilab berildi.

Shu o'rinda quyidagi jadval ma'lumotlari asosida Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan nazorat natijalarini tahlil qilamiz.

1-jadval


Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari [14](mln. so'mda)

Yillar	O'tkazilgan nazorat tadbirlari soni	Moliyaviy xatoliklar aniqlangan nazorat obyektlari		Huquqni muhofaza qilish organlarigaberilgani nazorat tadbiri materiallari	
		soni	summasi	soni	summasi
2020 yil	583	549	13 019,7	251	12 460,6
2021 yil	931	570	29 088,9	580	27 903,4
2022 yil	760	542	54 167,8	580	53 798,6
2023 yil	724	457	48 275,7	509	48 059,1

2020 yilda byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari soni 583 tani tashkil etib, shundan 549 tasida 13 019,7 mln so'mlik moliyaviy xatoliklar aniqlangan va 251 ta 12 460,6 mln so'mlik material huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilgan. Bu ko'rsatkichlar 2021 yilda ko'payib, o'tkazilgan nazorat tadbirlari soni 931 tani tashkil etib, shundan 570 tasida 29 088,9 mln so'mlik moliyaviy xatoliklar aniqlangan va 580 ta 27 903,4 mln so'mlik material huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilgan. 2022-2023 yillarda nazorat tadbirlari kamayishiga qaramasdan moliyaviy xatoliklar summasi ortgan, ya'ni 2022 yilda o'tkazilgan nazorat tadbirlari soni 760 ta tashkil etgan bo'lsa, shundan 542 tasida mln so'mlik moliyaviy xatoliklar aniqlangan va 580 ta 53 798,6 mln so'mlik material huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilgan, 2023 yilda nazorat tadbirlari soni 724 tani, moliyaviy xatoliklar aniqlangan tadbirlar soni 457 tasini, summasi esa 48 275,7 mln so'mni, huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilgan materiallar soni 509 tani va summasi 48 059,1 so'mni tashkil etgan.

2021 yilda byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari jami nazorat tadbirlarini 65,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 91,4 foizini tashkil etmoqda. byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida moliyaviy xatoliklar aniqlangan nazorat ob'ektlarining ulushi ham mos ravishda 64,9 foizdan 95,6 foizga oshgan bo'lsada, aniqlangan xatoliklar summasining ulushi 2021 yilda 17,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 61 %ga ko'tarilgan va 2023 yilda 31 %ni tashkil etmoqda. Byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari bo'yicha

huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilgan materiallar sonining ulushi 70,1 %dan 92 %ga ko'ratilgan bo'lsa, summasi 2020 yilda 17,6 %ni, 2022 yilda 61,2 %ni va 2023 yilda 30,9 %ni tashkil etgan.



2-rasm. Respublika bo'yicha o'tkazilgan jami nazorat tadbirlarida byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarining ulushi [14], %da

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Hisob palatasi faoliyatini yanada takomillashtirilishi uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishiga, shuningdek byudjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarining oldini olishga va byudjet intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy resurslarining samarali boshqarilishi, byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanilishi ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish, shuningdek qonunchilik hujjatlarining ijrosi samarali tashkil etilishini ta'minlash yuzasidan tizimli choralar ko'rilmogda.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, amalga oshiriladigan nazorat tadbirlarining maqsadlari va tartibini belgilash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining qonunlar ijrosi, shu jumladan davlat xaridlari sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga doir vazifalarini aniqlashtirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmogda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158 Farmoni, 11.09.2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son

2. Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI)ning Lima deklaratsiyasi. IX Kongressida 1977 yil qabul qilingan, 1-modda.
3. Подъяблонская М.Л. Финансы. Учебник для студентов вузов. М.:ЮНИТИ-ДАНА.2010.с.56
4. Нешиной А.С., Воскобойников Я.М.. Финансы.Учебник. М.Дашков и К, 2012. С.122-123
5. Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. М.:Магистр, ИНФРА-Мб 2017.с.28
6. Vahobov A., Malikov T. Moliya // Darslik. "Noshir", 2011 y. 286 bet
7. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 26.12.2013. <https://lex.uz/acts/2304138>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-son qarori. 01.08.2022 yil
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3093-son Farmoni,21.06.2002 yil
10. <http://www.ach.gov.uz/uz> - O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi rasmiy sayti
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6300-son Farmoni,27.08.2021 yil
12. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-856-son Qonuni 17.07.2023 yil
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moliya vazirligi huzurida davlat moliyaviy nazorati inspeksiya faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 129-son Qarori. 24.03.2022 yil
14. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorat Inspeksiya ma'lumotlari (<https://www.imv.uz/>)
15. Sharapova, M. (2018). Ijtimoiy soha xarajatlarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish. Biznes ekspert jurnali, (4), 124
16. Ismoilova, N., & Sharapova, M. (2019). Effective use of financial control in the public finance management (PFM). International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 1(2), 8-10.